

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Respublika tuproq iqlim sharoitiga mos sabzi navlarini yaratish hamda birlamchi urug‘chiligini tashkil etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: Markaziy tuproq iqlim sharoitiga mos sabzi navlarini yaratish hamda birlamchi urug‘chiligini tashkil etish loyiha doirasida istiqbolli nav va liniyalarni tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi natijalar olinadi: Loyihani amalga oshirish natijasida respublika markaziy tuproq iqlim sharoitiga mos turli muddatlarda yetishtirishga mo‘ljallangan yangi sabzi navlari yaratiladi va ular intellektual mulk agentligiga patent olish uchun va qishloq xo‘jalik ekinlarini nav sinash Davlat komissiyasiga topshiriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.